



## ALIMENT TO'LOVCHI, AMMO ISHSIZMISIZ? TO'LANADIGAN ALIMENT MIQDORINI BILASIZMI?

**Yoqubova Sevinchxon Adhamjon qizi**

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Xususiy huquq fakulteti 1-kurs talabasi*

XXI asr – rivojlanish asri. Ammo hamma asrlarda bo'lganidek bu asrning ham o'ziga yarasha muommo va kamchiliklari mavjud. Buni ko'plab misollar tariqasida ko'rish mumkin, ammo buni bugungi kunning asosiy mavzularidan biriga aylanib ulgurgan aliment va qisman ishsizlik bo'yicha ko'rib chiqamiz. Dastlab e'tiborimizni “aliment” so'ziga qaratsak.

“Aliment” so'zi lotinchadan olingan bo'lib, “alumentum” — qaramog'idagi, boqimidagi degan ma'noni anglatadi. Ya'ni bir shaxsning boshqa shaxsga majburan yoki ixtiyoriy ravishda to'laydigan nafaqasi. To'lash majburiyatlari asosan nikoh, qarindoshlik, ota-ona, farzandlik, farzandlikka olish, bolalarni tarbiyaga olish natijasida kelib chiqadi. Ishsizlik esa, iqtisodiy faol aholining o'ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zahirasi aylanishidir. Ma'lum bo'lganidek bu ikki tushuncha bir-biri uchun o'zaro ahamiytga egadir. Yana, buni shu bilan izohlasa bo'ladiki, kishiga aliment to'lash majburiyatini yuklanishida uning moliyaviy holati inobatga olinadi.

Jamiyatimizda mavjud bo'gan ayrim holatlar va ajrimla natijasida yuzaga kelgan aliment to'lash majburiyati kundan kunga dolzablashib bormoqda. Statistika agentlikning 2024-yili e'lon qilgan ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonda 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra Respublikada ajrimlar soni 49,2 mingtani tashkil etgan. Bu esa aliment to'lovchilar soni ham kam emasligini anglatadi. Ushbu maqolada yuqorida keltirilgan masalalar bo'yicha holatlarni batafsil o'rganib chiqamiz.

Ota-onalar hamda bolalarning aliment borasidagi huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartib-qoidalar asosida amalga oshiriladi. Ularga binoan ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart. Mazkur majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota-onadan sudning hal qiluv qaroriga asosan aliment undiriladi. Voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash haqida ota-onalar o'rtasida kelishuv bo'lmaganda yoki aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmaganda va ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat qilmagan hollarda, vasiylik va homiylik organlari voyaga yetmagan bolaning ta'minoti uchun ota yoki onadan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqlidir. Voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash va ularga, shuningdek voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalarga ta'minot berishda ota-onaning majburiyatlari tengdir. Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot uchun aliment to'lash tartibi va shakli haqida ota-ona o'rtasidagi kelishuv qonunda belgilangan qoidalarga va bolaning



manfaatlariga zid bo'lmashligi kerak. Agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va (yoki) daromadning 1 bola uchun — 1/4 qismi; 2 bola uchun — 1/3; 3 va undan ortiq bola uchun yarmi miqdorida undiriladi. Bu to'lovlarning miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvoli va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin. Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam ish haqining 1/3 qismidan kam bo'lmashligi kerak. Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalarga ta'minot berish ham ota-onaning kelishuviga binoan amalga oshiriladi, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa nizo sud tartibida hal qilinadi. Bunday bolalarga undiriladigan aliment miqdori aliment to'lashi shart bo'lgan ota-onaning oilaviy va moddiy ahvoli sud tomonidan hisobga olinib, har oyda pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi. Ota-ona favqulodda holatlar (bolaning og'ir shikastlanishi, kasal bo'lishi va boshqalar) tufayli kelib chiqqan, bolaning ta'minoti uchun zarur bo'lgan qo'shimcha harajatlarda ishtirok etishi shart. Qo'shimcha harajatlarda ishtirok etishdan bosh tortgan ota(yoki ona)dan sud ularning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olib, qo'shimcha harajatlarni qisman pul bilan to'lanadigan qat'iy summada undirish haqida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida pul yoki natura tarzida olingan barcha turdagi daromadlardan aliment ushlab qolinadi. Ota-onadan bolalarga undiriladigan aliment miqdori aliment to'lovchining oylik ish haqiga va (yoki) daromadiga nisbatan ulushlar hisobida yoki pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, 96-104-moddalar). Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shart. Ota-onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramog'ida ekanligi voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarni ota-ona haqida g'amxo'rlik qilish va ularga moddiy yordam ko'rsatish majburiyatidan ozod qilmaydi. Ular bunday yordam berishdan bo'yin tovasalar, ta'minot miqdori bolalarning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olgan holda sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan undirilayotgan aliment miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdorining 1/3 qismidan kam bo'lmashligi kerak (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, 109-110-moddalar). Oila a'zolari va boshqa shaxslarning, er-xotinlar va sobiq er-xotinlarning, qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari, aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzish, alimentlarni to'lash va undirish tartibiga oid qonun-qoidalar Oila kodeksining V bo'lim, 14-18-boblarida belgilab berilgan. Ana shunga ko'ra, aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs alimentni ixtiyoriy ravishda shaxsan yoki o'z arizasiga muvofiq ishlab turgan joyida yoxud pensiya, nafaqa, stipendiya va boshqa turdagi mablag' olayotgan joyida to'laydi. Voyaga yetmagan bolalar uchun olinadigan aliment arizaga muvofiq ushbu kodeksning 99-moddasida belgilangan miqdorlarda ushlab qolinadi. Aliment



to'lovchining ish, o'qish joyi yoki turar joyi o'zgarganligi haqida xabar qilish majburiyati ham bor. Bu majburiyat bo'yicha aliment ushlab qolishi lozim bo'lgan ish beruvchi (tashkilot ma'muriyati) uch kun muddat ichida xabar berishi kerak. Shuningdek, aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning qo'shimcha ish haqi yoki boshqa daromadi to'g'risida sud ijrochisi hamda aliment oluvchi shaxs yuqorida ko'rsatilgan muddatda xabardor qilinadi. Aliment to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun jinoiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 122 va 123-moddalarida ko'rsatilgan. Moddiy yordamga muhtoj bo'lgan, voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, ya'ni sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami 3 oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaganlikda aybli deb topilgan shaxs eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha miqdorda jarima yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 6 oygacha qamoq bilan jazolanadi. Voyaga yetgan shaxslarning mehnatga layoqatsiz va moddiy yordamga muhtoj bo'lgan ota-onani yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlashdan shunday bo'yin tovlashi ham yuqoridagicha jazolanadi.

Prezidentning „Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi farmoniga asosan 2021-yil 1-martdan aliment undirish tartibi o'zgardi. Mazkur farmon bilan 1-martdan boshlab ijro hujjatlari bo'yicha aliment majburiyatlarini bajarish qarzdorlar tomonidan aliment majburiyatlarini ijro etish va nazorat qilishning yagona axborot tizimi orqali amalga oshirilishi belgilandi. Aliment majburiyatlarini ijro etish va nazorat qilishning yagona axborot tizimi aliment majburiyatlari bo'yicha alohida bank hisob varag'i bilan birlashtiriladi. Bunda Majburiy ijro byurosi tomonidan ijro hujjatlari bo'yicha undiruvchi (aliment oluvchi) nomiga tegishli bank plastik kartasi ochiladi hamda aliment pullari, shu jumladan, qarzdorning ish haqidan ushlab qolingan aliment pullari ushbu aliment majburiyatlari bo'yicha alohida bank hisob varag'i orqali mazkur bank kartasiga o'tkaziladi.

Fuqarolarning hujjatlarsiz ishlaydigan qatlami bilan aliment undirish tartibi belgilangan. Unga ko'ra, noqonuniy tartibda ishlovchi (bozor, chet eldagi, daromadi ro'yxatga olinmaydigan) fuqarolar daromadlari axborot tarmoqlariga ko'ra monitoring qilinadi. Fuqaroning to'layotgan solig'i, bankka topshirgan naqd pullaridan kelib chiqib uning o'rtacha daromadi hisoblab chiqiladi. Xorijdagi ishchilar daromadi xorijdagi hamkorlar orqali muayyan davrdagi daromadlarni aniqlash ishlari amalga oshiriladi. Umumiy daromadlardan kelib chiqib, aliment to'lovchining qarzdorligi aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining joriy 2024-yil 12-martdagi 123-sonli qarorida ham aliment oluvchilarga bir nechta yeengilliklar ko'rsatilgan. Uning o'zgaralar parvarishiga muhtoj shaxslarni huquqiy muhofaza qilish xizmati bo'limida o'zgaralar parvaishiga muhtoj shaxslarning huquqiy muhofaza choralariga ehtiyojini aniqlash uchun normalar kltirilgan bo'lib, unga ko'ra, tuman (shahar) adliya bo'limlari tomonidan "Inson" markazining o'zgaralar parvarishiga muhtoj shaxs foydasiga aliment undirish, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash



yuzasidan sudga kiritiladigan arizalarni tayyorlash to'g'risidagi talabnomasi kelib tushgandan so'ng, 5 ish kunida ariza yoki da'vo arizasi loyihasi shakllantirilib, "Inson" markaziga yuboriladi. "Inson" markazi tuman (shahar) adliya bo'limi tomonidan shakllantirilgan ariza yoki da'vo ariza asosida sudga murojaat qiladi.

Oila kodeksining 140-moddasiga muvofiq voyaga etmagan bolalarga tolanadigan aliment qarzining miqdori aliment tolashi shart bolgan shaxsning ish haqi va boshqa daromadi miqdoridan kelib chiqqan holda aliment undirilmagan vaqt uchun hisoblab chiqilishi, aliment tolashi shart bolgan shaxs shu davrda ishlamagan bolsa yoki uning ish haqi va (yoki) daromadini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilinmagan bolsa, aliment qarzi undirilayotgan vaqtda aliment O'zbekiston Respublikasidagi ortacha oylik ish haqi miqdori boyicha hisoblab chiqilishi belgilangan.

Davlat statistika qo'mitasi xabar berishicha, 2022-yilning yanvar—mart oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi — 3,4 million so'mni tashkil etadi. 2023-yil yakuniga ko'ra 4 million 551 ming so'mni tashkil etadi.

Jamiyatimizda aliment masalasi jiddiy ko'rinishga ega masalalardan hisoblanadi. Shuning uchun ham uni ko'plab normativ-huquqiy hujjatlarda uchratish mumkin. Misol uchun, ko'rilayotgan masala, ishsizlar uchun aliment hajmini belgilanishi Oila kodeks 140-moddasi bilan, to'lanadigan aliment miqdori esa, Oila kodeksining 99-109-110-moddalari bilan tartibga solishini ko'rishimiz mumkin.